




Andijonda o'zbek mumtoz adabiyotining zabardast vakili, buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, olim va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 539 yilligiga bag'ishlangan adabiy tadbir bo'lib o'tdi.

O'ZA fotomuxbiri  
Zuhriddin UMURZOQOV olgan suratlar.

## O'ZBEKISTONDA KUTUBXONADAN KO'RA MEHMONXONALAR TO'RT MARTA KO'P

FAMILIYASINI XATO YOZADIGANLAR QATLAMI SHAKLLANDI

**B**ilimsizlik insoniyat uchun eng qorong'i tundur". Ushbu hikmat muallifi buyuk Sharq faylasufi Konfutsiy bu borada ming karra haq.



Bakriddin ZARIPOV,  
Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat  
universiteti professori,  
Jahon fiziologlar jamiyati  
(Stokgolm) akademigi,  
Rim universiteti (Italiya)  
fakriy professori

...Bundan 4 yil burun meni Harvard universitetiga fiziologiya sohasi bo'yicha ilmiy ma'ruza o'qishga chaqirishdi. Ma'ruzadan keyin "Kutubxonaga boramiz!" dedim. Bu sheriklarimga ham ma'qul tushdi. Ammo mezbonning "Universitetning qaysi kutubxonasiga?" degan savoli bizni gangitib qo'ydi.

Harvard universitetining tibbiyot, tabiatshunoslik, adabiyot, huquqshunoslik, geologiya, tarix, informatika va boshqa sohalarga ixtisoslashtirilgan 80 ta kutubxonasi borligini bilmas ekanmiz. Shunda ham sir boy bermay, markaziy kutubxonasini ko'rmoqchi ekanligimizni bildirdik.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, Harvard universiteti Massachusetts shtatining Kembrij shahrida joylashgan bo'lib, u

dastlab 1636 yilda kollej sifatida tashkil etilgan. XIX asrning birinchi choragida esa universitetga aylantiriladi.

E'tibor qiling, Harvard universiteti bitiruvchilaridan 79 nafari Nobel mukofoti sohibi bo'lgan. Bugungi kunda ularning 14 nafari shu universitet talabalariga dars beradi. Dunyodagi milliarder boylarning yarmi uning sobiq talabalarini hisoblanadi. AQShning 45 Prezidentidan 12 nafari shu oliy o'quv yurtini tamomlagan...

Universitet kutubxonasi o'z eshiklarini 1638-yili ochgan bo'lib, fondida 8 millionga yaqin asarlar saqlanadi. Ular orasida ingliz vaziri, san'at bakalavri J. Harvard qoldirgan kitoblar eng noyob adabiyotlar sirasiga kiradi. J. Harvard o'z mulkining yarmi va kutubxonasini uning nomi berilgan mazkur universitetga vasiyat qilib qoldirgan.

Davomi 10-sahifada.

## ACHCHIQTOSH

### TARG'IBOTCHILIK KIMLARGA QOLDI?

Bu maqolani yozishdan o'zimni ancha vaqt tiyib yurdim. Biroq dilimdagi alanga bugun tomog'imgacha ko'tarilib, bo'g'zimni kuydirdi. Endi yozmasam bo'lmaydi...

Iste'dod insonga Alloh tomonidan berilgan eng katta in'omdir. Yaratgan bunday qobiliyatni faqatgina suygan bandalariga hadya qiladi. Jurnalistika va adabiyot sohasida qalam tebratayotgan ijodkorlar el orasida tanilib, dong'i ketganiga faxrlansa arziydi. Ammo maktablarda ishlab, umrida bir qog'oz xabar qoralay olmagan o'qituvchilar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalovchi — targ'ibotchilik kasbini qanday uddalayapti?!

Davlatimiz rahbarining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalari rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, 2021-yil 1-apreldan har bir umumta'lim muassasasi-

da ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etildi. Unga ko'ra, bu lavozimga Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tavsiya etilgan taniqli shoir, yozuvchi, jurnalist va ijodkorlar, oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy-gumantar kafedralari professor hamda o'qituvchilari jalb qilinadi. Oliy maqsad yosh avlodni ma'nan barkamol etib tarbiyalash, maktab o'qituvchilari va faol o'quvchilarning ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazishga ko'maklashish, turli viktorina, mushoira, adabiy kechalar, qiziqarli darslar, kitobxonlik va she'rxonlik musobaqalarini tashkil etib, yangi adabiyot yulduzlarini kashf etishdir.

Davomi 3-sahifada.

## OYNADAN O'PKALAMA

### TALABANING DARDINI TINGLAYDIGAN



**Yoxud u turmushga chiqsa,  
Uzara muammosi hal bo'ladimi?**

Yangi ijara uyiga ko'chganimizga taxminan 15 kun bo'lgan edi. Vaqt topib shuni nishonlamoq ilinjida palovxon to'rani do'ppidek qilib damladik. "Xozyayka"miz ko'zimizga farishtadek ko'ringanidan, unga ham bir tovoq uzatdik. Maqtab-maqtab, alqab-alqab o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Biroq mamnunlik uzoqqa cho'zilmadi. Bir-ikki kun o'tib, "xozyayka"miz uydan chiqib ketishimizni so'radi. Sababini bilmoqchi bo'lsak,

ming'irladi, to'ng'illadi. Aniq va asosli vaj yo'q.

Davomi 3-sahifada.



# RUSTAM ASHUROV: “MAMLAKATDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ULUSHI QANCHA KATTA BO‘LSA, ENERGETIKA SHU DARAJADA MUSTAQIL BO‘LADI”

Mamlakatimizda muqobil energetika tizimlarini amaliyotga tatbiq etish tabiiy boyliklarni asrashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli keyingi yillarda “yashil energetika”ni rivojlantirish, xususan, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Energetika vazirligi matbuot xizmatining ma‘lum qilishicha, ushbu yo‘nalishda o‘tgan 3 yil ichida 10 ta bitim imzolangan. 2021-yilning avgust oyida Navoiy viloyatining Karmana tumanida birinchi 100 MVt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. 2022-yilda ham umumiy quvvati 1 900 MVt bo‘lgan 8 ta quyosh elektr stansiyasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida umumiy quvvati 1 700 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyalarini qurish uchun loyiha bitimlari imzolinishi rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi lon-plazma va lazer texnologiyalari instituti katta ilmiy xodimi, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori Rustam ASHUROV bilan suhbatimiz muqobil energetika tizimlarini amaliyotga tatbiq etish, bu jarayonda amalga oshirilayotgan ishlar, loyihalar va ekspertlar fikriga munosabatlar, Markaziy Osiyo umumhalqa faoliyati xususida bo‘ldi.

– Dastlab muqobil energetika manbalari haqida to‘xtalib o‘tsangiz. Bu yo‘nalishda qaysi davlatlarni ilg‘or deb bilasiz? Mamlakatimizda “yashil energetika”ning ulushi necha foizni tashkil etadi?

– Avvalo, muqobil energetika, xususan, qayta tiklanuvchi energetika nima ekanligi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmochlikman. Bizda elektr energiyasi ta‘minoti asosan uglevodorodlar yoqilg‘ilariga asoslanadi. Muqobil energetika an’anaviy usulda elektr energiya olishga muqobil sifatida amaliyotga tatbiq etilgan.

Qayta tiklanuvchi energetika deganda esa tabiatdagi uzluksiz jarayonlar natijasida o‘z manbalarini doimiy qayta tiklab turuvchi energetika tushuniladi. Quyosh va shamol energetikasi, okean va geotermal energiyasi ham shu turda xosdir. Bu kabi energetika olish usuli tabiiy jarayonlar bilan uyg‘unligi sababli iqlimga sezilarli ta‘sir qilmaydi.

Men Germaniyani qayta tiklanuvchi energetika manbalarini amaliyotga tatbiq etishda yetakchi davlat sifatida ko‘raman. Dastlabki loyihalarga nazar soladigan bo‘lsak, “Yashillar” partiyasi Bundestagdan joy olgandan so‘ng, Germaniyada atom elektr stansiyalarini to‘xtatish masalalari ko‘tarilgan va ularga alternativ – muqobil ko‘rinishda birinchi marta “1000 ta quyoshli tom” loyihasi amalga oshirildi, keyinchalik u yuz mingga ko‘tarildi. Bu loyiha “Bir millionta quyoshli tom” dasturiga aylanadi, ya‘ni odamlar o‘z-o‘zini avtonom ravishda energetika resurslari bilan keng qamrovda ta‘minlash madaniyatini shakllantiradi. Bu kabi loyihalar ilk marotaba Germaniyada davlat miqyosida – parlamentda muhokama qilingan va dasturlar amalga oshirila boshlangan. Keyinchalik Yevropada qayta tiklanuvchi energetikalariga munosabat keskin ijobiy tomonga o‘zgardi. So‘ngra ko‘plab davlatlarda bu kabi maqsadli dasturlar qabul qilina boshlandi. Uning huquqiy bazasi Germaniya yoki Yevropadan andoza olinib yaratilmoqda. Keyingi paytda Saudiya Arabistoni kabi iqtisodiy uglevodorodlarga asoslangan davlatlarda ham bunday loyihalar an’anaga aylanyapti.

Mamlakatimizda “yashil energetika”ning ulushi haqida gapiradigan bo‘lsak, bu yerda muqobil deganda, biz neft va gaz, ya‘ni uglevodorodlar ulushidan tashqari bo‘lgan ixtiyoriy manbani olamiz. So‘nggi ochiq ma‘lumotlarga qaraganda, 90 foiz ulush uglevodorodlarga to‘g‘ri keladi. Ya‘ni neft, gaz, mazut, ko‘mir va shu kabi an’anaviy energetika resurslaridir. 10 foizi esa GES kabi qolgan energetika generatsiyasining hissasidir. Lekin kichik GESlar, kichik quyosh elektr stansiyalari va shamol generatorlarining aniq ulushi haqida bir narsa deya olmayman.

Aytish joizki, O‘zbekistonda 2030-yilgacha elektr energetika bilan ta‘minlash konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur hujjat bo‘yicha 2030-yilgacha bizda aniq qayta tiklanuvchi energetika manbalari ulushi umumiy elektr energetika ulushiga chiqarishning 30 foizini tashkil qilishi kerak. Energetika vazirligining ta’kidlashicha, 2030-yilgacha bu 12 gegavattgacha chiqishi, uning 7 gegavatti quyosh va 5 gegavatti shamol energetikasidir.

Buni Navoiy viloyati Karmana tumanida BAAning “Masdar” kompaniyasi bilan hamkorlikda qurilgan 100 megavattli quyosh elektr stansiyasi misolida ko‘rishimiz mumkin. “Masdar” kompaniyasi Sherobodda quriladigan QES tenderida ham g‘olib bo‘ldi. Shunday dinamik va tempda ketadigan bo‘lsa, loyihalar o‘zining amaliy ko‘rinishiga ega bo‘ladi, degan umiddaman.

– Ta’kidlaganimizdek, muqobil energetika manbalari bilan foydalanish va bu tizimni hayotga tatbiq etishga qaratilgan bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Ayrim ekspertlar bunday loyihalar davlatga ancha qimmatga tushishi, AESlar faoliyati undan ko‘ra unumli ekanligini ta’kidlashadi. Sizing munosabatingiz qanday?

– Birinchidan, ikkita stansiyani bir-biriga qarshi qo‘yish unchalik ham to‘g‘ri emas. O‘zbekiston sharoitida elektr energetikasi diverifikatsiyasi juda muhim. Qayta tiklanuvchi energetika manbalariga nisbatan bunaqa ishonchsizlik bilan qarash yoki uni samarasiz deiyish esa qachonlardir G‘arbda yoki

rivojlangan davlatlarda bo‘lgan edi. Bizga shu bahsli holatlar endi yetib keldi. Aksariyat ekspertlarning faktlari aynan 10 yil oldingi G‘arbdagi hamkasblari fikri bilan bir xil. Axir 10 yil davomida qayta tiklanuvchi energetika manbalari texnologiyalari o‘zgardi. Buni ular hisobga olmayapti.

Ularning e’tirozlar asosan energiyaning tannarxi, energetika samaradorlik va ekspluatatsion xarajatlarga qaratilgan. Qimmat degan fikrga quyidagi izohni keltiraman: Sherobodagi QES 1 kilovatt-soat elektr energetika ishlab chiqarishi 1,8 sentga baholangan. Bu juda arzon narx hisoblanadi. Quyosh energetikasi dunyoda elektr energetika uchun past narxlar borasida ketma-ket rekordlarni qayd etmoqda. Dunyoda bugungi kunda 1 kilovatt-soat elektr energetikaga 1,4 sent narx berayotganlar ham uchramoqda. AESda shunaqa imkoniyat hozir bormi? Bugungi kunda narx va potensial jihatdan quyosh energetikasi oldinga o‘tib ketdi. Buni yaqin davr ichidagi ma‘lumotlar asosida aytayman. Ikkinchidan, narxni solishtirganda juda adolatsizlikka yo‘l qo‘yishadi. Bu hisob-kitoblarda LCOE (Levelized cost of energy), ya‘ni elektr energetikasining tenglashtirilgan narxi orqali solishtirilishi kerak. Aytaylik, mamlakatimizda qurilayotgan ikkita “VVER 1200” reaktorining loyiha qiymati 10-12 milliard dollar atrofida baholangan. Loyiha nafaqat reaktor o‘rnatish, balki uning infrastrukturasi, kadrlar tayyorlash, foydalanish muddatidan keyingi konservatsiyasi kabi qator vazifalarni o‘z ichiga olishi kerak. Shunda loyihalashdan oldingi davrdan boshlab uning tugatilishi davri va undan keyingi davri va ishlash jarayonining o‘rtacha narxini olib qaraganda, AES qimmatga tushadi. Men bu borada O‘zbekiston bo‘yicha hech qanday ma‘lumot topa olmadim. Deylik, Iordaniyada ilk marotaba “VVER 1000” reaktori qurilganda 200 million dollarga cha qo‘shimcha xarajatlar qilindi haqida ma‘lumotlar bor. Fransiya yoki Germaniya bunday xarajatlar qilmas, lekin hali atom infrastrukturasi bo‘lmagan davlatlarda shunaqa katta xarajat bo‘ladi. Bunda adolatsizlik hisob-kitob bo‘ladigan bo‘lsa, quyosh elektr stansiyasi ancha arzonidir.

Bu fikrlar, asosan MDH hududida, ya‘ni o‘zining qayta tiklanuvchi dasturlari bo‘lmagan, AES va uglevodorodlar energetika resurslaridan manfaatdor guruhlar tomonidan kelib chiqyapti.

– Prezidentimizning 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energetika samaradorligini oshirish, energetika tejoychilari texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energetika manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda mazkur yo‘nalishni rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu qaror bilan aynan shu yo‘nalishda shug‘ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslarga qanday imtiyozlar berilgani haqida ham to‘xtalib o‘tsangiz.

– Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ham doimiy ravishda yangi texnologiyalar joriy qilish jarayonida bunday imtiyozlar berib turiladi. Bu imtiyozlar nimaningdir hisobidan emas, balki o‘sha sohani rivojlantirish uchun beriladi. O‘zbekistonda ham aynan shunday imtiyozlar joriy qilingani qayd etiladi. Bu asosan hozircha soliq imtiyozlari ko‘rinishida berilyapti.

Quyosh qurilmalari o‘rnatilganda o‘sha yerda ma‘lum miqdorda soliq imtiyozlari ko‘zda tutilgan. Masalan, 0,1 megavattdan ko‘p bo‘lgan quvvatdagi stansiyalar haqida gap ketganda, bu yerda mulk solig‘i yoki yer solig‘idan o‘sha korxonada ozod qilinadi. Bularning natijasi o‘laroq, O‘zbekistonda ilk bor jismoniy shaxs o‘z uyiga quyosh panelarini o‘rnatib, elektr energetika ishlab chiqarib, uning ortgan qismini davlatga sotdi. Bu amaliyot ham ommalashadi, degan umiddaman.

– Muqobil energetika manbalari qaysi biri O‘zbekiston energetikasini rivojlantirishda samarali, deb o‘ylaysiz?

– Quyosh va shamol elektr energetikasi O‘zbekiston uchun samarali. Chunki mamlakatimiz quyoshli o‘lka hisoblanadi. Yurtimizning geografik joylashuvi aynan shamol va quyosh elektr energetikasi uchun juda mos.

Masalan, shamol generatorlari haqida gap ketadigan bo‘lsa, shamolning yo‘nalishi va uning esishi o‘rganilishi zarur. Quyosh va shamol O‘zbekiston uchun juda istiqbolli energetika manbasidir, deb hisoblayman.

– Shu o‘rinda, o‘zingiz faoliyat yuritayotgan lon-plazma va lazer texnologiyalari instituti haqida ham gapirib bersangiz. Muassasa faoliyati nimalardan iborat?

– Materialshunoslik sohasi mutaxassisim. Materialshunoslikning quyosh energetikasiga yo‘naltirilgan sohasi, ya‘ni quyosh energetikasi uchun yangi materiallar yoki quyosh energetikasining yangi tipdagi strukturalari ustida ishlaymiz.

lon-plazma va lazer texnologiyalari institutida ham asosiy yo‘nalish materialshunoslik bo‘lib, yangi materiallarni sintez qilishdan boshlab, amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha to‘liq jarayon amalga oshiriladi. Hozirgi kunda yuqori samarali quyosh yacheykalarini O‘zbekistonda yaratish bo‘yicha tadqiqot olib boryapmiz, chunki mazkur yo‘nalishda xomashyo sintezi milliy texnologiyalarini yaratganmiz.

Bu jarayon juda murakkab bo‘lib, an’anaviy quyosh elementlari o‘rniga yupqa plyonkalar o‘stiriladi. Bunda ishlatiladi-

gan xomashyo transportirovkasi biroz xavfli. Maqsadimiz zarur xomashyoni o‘zimizda ishlab chiqarishdir. Bizda mavjud silan texnologiyasi orqali SHJ quyosh elementlarini olish uchun texnologiya integratsiyasi ustida ish olib borilmoqda. Hukumat dasturi asosida Germaniyadan qiymati 2 million dollarga teng o‘stiruvchi klaster sotib oldik.

Mazkur kompleks ishlar xomashyodan tortib mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Loyihaga ko‘ra, o‘zimizda ishlab chiqariladigan xomashyo yuqori samaradorlikka ega quyosh yacheykasini yaratishda ishlatiladi.

– Joriy yil 25-yanvar kuni mamlakatimiz elektr energetika ta‘minotida jiddiy uzilish kuzatildi. Energetika vazirligi Markaziy Osiyo yagona energetika tizimida avariya holati yuzaga kelganini ma‘lum qildi. Ana shu yagona tizimning foydali va salbiy tomonlari nimalardan iborat?

– Markaziy Osiyo energetika halqasi sobiq tuzum davrida tashkil qilingan. 40 millionga ham yetmagun mintaqa aholisi istiqomat qiladigan eng zich hududlarni qamrab olish, ularni samarali ravishda arzon energetika bilan ta‘minlash uchun mana shu loyiha amalga oshirilgan. Bugungi kunda u Qirg‘iziston, O‘zbekiston va janubiy Qozog‘istonni o‘z ichiga oladi. Shimoliy Qozog‘iston halqasi esa Rossiyaga ulangan.

Ushbu davlatlar elektr energetika bir-biri bilan almashgan holda, umumiy halqaga ega bo‘lib turibdi. Bu haqida Turkmaniston va Tojikiston ham bo‘lgan. 2000-yil boshlarida ular ketma-ket bu halqadan chiqib, alohida infrastruktura qilib ko‘rdi. Bu qimmatga tushgani uchun keyinchalik, 2000-yilning ikkinchi dekadasi yana shu halqa konsepsiyasiga qaytdi. Elektr energetikasi o‘zaro almashgan holda foydalanish arzoniga tushadi.

Mustaqil energetikamiz bo‘lsin desak, bu juda qimmatga tushadi. Biz yo unisiga, yo bunisiga ko‘nishimizga to‘g‘ri keladi.

Energetika halqaning o‘ziga keladigan bo‘lsak, uning infrastrukturasi eskirgan. Umumiy halqani foydali dedim. Mening fikrimcha, mustaqil energetika tizimi bo‘lgani yaxshi. Biroq bunga juda katta mablag‘ zarur. Mustaqil bo‘lgan holda qanaqadir bir “vetka”ni qo‘yishimiz mumkin. Yana bir narsani inobatga olish kerakki, mamlakat iqtisodiyotida qayta tiklanuvchi energetika ulushi qancha katta bo‘lsa, energetika shu darajada mustaqil bo‘ladi. Kelishmovchiliklarda qarshi ishlatiladigan manba bu – elektr energetika resurslaridir. Bunday holat jahonda ko‘p kuzatilmoqda. Bu – geosiyosat deyiladi. Qayta tiklanuvchi manbalar esa ushbu siyosatdan yiroqdir.

– Energetika halqaning o‘ziga keladigan bo‘lsak, uning infrastrukturasi eskirgan. Umumiy halqani foydali dedim. Mening fikrimcha, mustaqil energetika tizimi bo‘lgani yaxshi. Biroq bunga juda katta mablag‘ zarur. Mustaqil bo‘lgan holda qanaqadir bir “vetka”ni qo‘yishimiz mumkin. Yana bir narsani inobatga olish kerakki, mamlakat iqtisodiyotida qayta tiklanuvchi energetika ulushi qancha katta bo‘lsa, energetika shu darajada mustaqil bo‘ladi. Kelishmovchiliklarda qarshi ishlatiladigan manba bu – elektr energetika resurslaridir. Bunday holat jahonda ko‘p kuzatilmoqda. Bu – geosiyosat deyiladi. Qayta tiklanuvchi manbalar esa ushbu siyosatdan yiroqdir.

– Energetika halqaning o‘ziga keladigan bo‘lsak, uning infrastrukturasi eskirgan. Umumiy halqani foydali dedim. Mening fikrimcha, mustaqil energetika tizimi bo‘lgani yaxshi. Biroq bunga juda katta mablag‘ zarur. Mustaqil bo‘lgan holda qanaqadir bir “vetka”ni qo‘yishimiz mumkin. Yana bir narsani inobatga olish kerakki, mamlakat iqtisodiyotida qayta tiklanuvchi energetika ulushi qancha katta bo‘lsa, energetika shu darajada mustaqil bo‘ladi. Kelishmovchiliklarda qarshi ishlatiladigan manba bu – elektr energetika resurslaridir. Bunday holat jahonda ko‘p kuzatilmoqda. Bu – geosiyosat deyiladi. Qayta tiklanuvchi manbalar esa ushbu siyosatdan yiroqdir.

– Energetika halqaning o‘ziga keladigan bo‘lsak, uning infrastrukturasi eskirgan. Umumiy halqani foydali dedim. Mening fikrimcha, mustaqil energetika tizimi bo‘lgani yaxshi. Biroq bunga juda katta mablag‘ zarur. Mustaqil bo‘lgan holda qanaqadir bir “vetka”ni qo‘yishimiz mumkin. Yana bir narsani inobatga olish kerakki, mamlakat iqtisodiyotida qayta tiklanuvchi energetika ulushi qancha katta bo‘lsa, energetika shu darajada mustaqil bo‘ladi. Kelishmovchiliklarda qarshi ishlatiladigan manba bu – elektr energetika resurslaridir. Bunday holat jahonda ko‘p kuzatilmoqda. Bu – geosiyosat deyiladi. Qayta tiklanuvchi manbalar esa ushbu siyosatdan yiroqdir.

O‘ZA muxbiri  
Nasiba ZIYODULLAYEVA  
suhbatlashdi.



# TARG'IBOTCHILIK KIMLARGA QOLDI?

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Ammo ayni vaqtda ayrim maktablarda faoliyat yuritayotgan, asli ijodkor bo'lmagan filolog va boshqa fan o'qituvchilari yosh bolakajalarning iste'dodini ko'rsata olarmikan?! Raqamlar tilga kirganda bu lavozimdan ko'zlangan asl maqsaddan sal uzoqlashib ketayotganimiz oydinlashadi.

Maktablarda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyati qay darajada to'g'ri va samarali yo'lga qo'yilganini o'rganish maqsadida jurnalistik surishtiruv olib bordim. Tadqiqotni Buxoro viloyatining Vobkent tumanidan boshladim.

Vobkentda jami 42 ta umumta'lim maktabi bor. Aniq bo'lishicha, ushbu bilim darajalarida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimiga 1 nafar shoira, 3 nafar jurnalist, 2 nafar Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, 5 nafar madaniyat xodimi, 5 nafar ijodkor o'qituvchi, 20 nafar ona tili va adabiyot o'qituvchisi (ular ichida nafaqadagilar ham bor), 6 nafar boshqa fan o'qituvchisi jalb qilingan. Hatto, musiqa, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari o'quvchilarga ijod sirlaridan saboq bermoqda. Yurtimizning ko'pgina ta'lim muassasalarida shu ahvoldir, shu ko'zbo'yamachilik. Viloyatdagi tumanlararo ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar bilan suhbatlashdim.

**Rushana NABIYEVA,**  
Buxoro shahridagi  
14-maktabning ijodiy-  
madaniy masalalar bo'yicha  
targ'ibotchisi, yozuvchi:



— Ijodkor yoshlarni kashf etishda yozuvchi va shoirlarning targ'ibotchi bo'lishi ma'qul. Shahar qamrovida hisoblaydigan bo'lsa, maktablarda 70 foiz ona tili va adabiyot o'qituvchilari targ'ibotchilik qilmoqda. To'g'ri, ta'lim muassasalarida filologlarning bu ish bilan shug'ullanayotgani ham samara beradi. Masalan,

men mutaxassisligim bo'yicha rus tili o'qituvchisiman. Shunday bo'lsa-da, bolalarga ilhom bag'ishlab, ularni ijodga oshno qilib boryapman. Balki ko'pgina matbuot nashrlarida o'z asarlarim chop etilgani, xorij nashrlarida maqolalarim e'lon qilingani uchun bu ish menga qiyinchilik tug'dirmayotgandir. Lekin ona tili va adabiyot o'qituvchilarida ham bu imkoniyat uchun keng yo'l ochiq. Menimcha, ular matbuot tahririyatlarida biroz muddat amaliyot o'tashsa, hammasi iziga tushib ketadi. Chunki ular o'zbek tili borasida baza mavjud. O'ylaymanki, ularning harakati ko'p narsani o'zgartirishga qodir!

**Zuhro ASADOVA,**  
Jondor tumanidagi  
31-maktabning ijodiy-  
madaniy masalalar bo'yicha  
targ'ibotchisi, jurnalist:



— Tumanimizda yozuvchi, shoir, jurnalist, hech bo'lmaganda, oliy o'quv yurtini ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha tamomlagan professor o'qituvchi bolalarga ijod sirlaridan to'g'riqarash mashg'ulotlari o'tishi lozim edi. Ammo hududimizdagi maktablarning aksariyatida ona tili va adabiyot o'qituvchilari, hatto, ijodkorlikka aloqasi bo'lmagan informatika, matematika fanidan dars beradigan pedagoglarni uchratdim. Tuman mutasaddilari Prezident qarorini obdan o'rganib, ushbu lavozimga soha mutaxassisini jalb etishga yaxshi bo'lardi. To'g'ri, ijodkorlar juda tanqis. Biroq izlagan imkon topadi. Gapning ochig'i, ba'zida maktab direktori yoxud jamoasi chetdan kelgan o'qituvchini xushlamaydi. Shuning uchun o'z muhitidan kelib chiqqan holda tanishini tiqishtiradi. Muammolar bor. Yechim esa topilganicha yo'q.

Ochig'i, kamina ham ushbu sohada o'zini sinash uchun tuman mutasaddilarigacha murojaat qildi. Ammo "Talabasan"

deya ishlashga ruxsat berishmadi. Men-ku hali jurnalistika sohasida pishib yetilmagan ilmi tolibman. Hattoki, necha yillardan beri "Vobkent hayoti" gazetasi tahririyatida ishlab, yonib ijod qilayotgan bosh muharrir O'ktam Istatovga bu ish yuzasidan bir og'iz taklif tushmagan.

Ijod yo'li mashaqqatli! Bu yo'ldan yurish, uning qaynoq iztiroblari-yu mashaqqatlariga bardosh berish har kimga ham nasib etavermaydi. Jurnalistika sohasiga ilk qadam qo'ygan paytlarim qancha qoralamlarim bosh muharrir qo'lga yetib bormay, rad etilardi. Ana o'shanda ichimda qanday o'kinch tuyganimni o'zimdanda o'zga hech kim bilmaydi. Bugun esa tahririyatlarga bormay, yozmay, tahrir san'atini tushunmay turib, o'quvchilar bilan ijodiy qobiliyati ustida ishlayotgan o'qituvchilarga nima deysizga hayronman. Balki ular bu mas'uliyatli vazifani shunchaki daromad manbaji qilib olgandir? Yoki bolalarning ijod namunalarini jurnalistika sohasida ishlayotgan mutaxassislariga yuborib, "manfaatli" takliflar bildirayotgandir? Axir shaxsan o'zimga shunday taklif bildirishdi! "Gazetaga chiqarsang, rozi qilaman!" debdi telegram orqali yuborilgan xabarda. Yana o'sha oting o'chgur korruptsiya!

Albatta, filolog bo'la turib ham yaxshi ijodkor, kuchli targ'ibotchi bo'lish mumkin. Bu sohaning mas'uliyatini his etib, bolalarning ijodkorlik qobiliyatini yuzaga chiqarishda jonbozlik ko'rsatayotgan pedagoglarni sanash mumkin. Biroq ularning barakasini hisoblashda barmoqlarning o'zi kifoya. Ko'pchiligi elakda elansa, po'stakka tushadigan, cho'michga chiqarsa, qozonda qoladigan.

Niyatim, tinmasdan yozing, targ'ibotchi filologlar. O'xshamasa, nashrga tavsiya etilmadi, yana harakat qiling! Siz ham tahririyatlarda amaliyot o'tab, ijodning mazasini bir tolib ko'ring! Ijodkor bo'lmagan ijodkor yetishtira olishiga ko'zim yetmaydi. Chidamasangiz, eski mashg'ulotingizga qaytib, marhamat qilib o'rinni o'z egasiga bo'shatib qo'ying!

Bu gaplar tumanimdagi ona tili va adabiyot o'qituvchilariga ham tegishli. Respublika nashrlariga hali yo'l bo'lsin! Hech bo'lmaganda tumanimiz gazetasida chiqishlar qilihsin. Ko'raylik Vobkentning targ'ibotchi iste'dodlarini!

**Azim AXTAMOV,**  
talaba



## TALABANING DARDINI TINGLAYDIGAN BORMI?

**yoxud u turmushga chiqsa, ijara uy muammosi hal bo'ladimi?**

Mana, yana ko'chama-ko'cha yurib, boshpana qidirib yuribmiz. Taxminan bu shu o'quv yili hisobidan o'n birinchisi. Hisobdan adashmayotgan bo'lsak... Axir sentabrda buyon shu alfozda yashaymiz.

Bizga har tomonlama ma'qul kelgan uyni internetdagi e'lon orqali topdik-da, zudlik bilan borib ko'rishga otladik. Ko'rdik ham. Joy aytilgan narxga to'g'ri kelmaydi. Yetmaganiga "makler" haqqi ham borki, uyga beradigan pulimizning yarmicha olaman deydi.

Uy bozoriga bordik. Ijarachi-yu maklerlar o'z talabini, shartini qo'yadi-yu, o'laqalsa bizning talabga quloq tutmaydi. Uch xonali uy 300 dollar, yana 150 dollar "makler" haqqi. "Shartnoma qilib beramiz, davlat yarmini to'laydi", deganlar ham chiqdi. Ammo uy sohiblari "Daromad solig'ini ham o'zlariga to'laysanlar, ana shunda shartnomaga qo'l qo'yaman", deydi.

Bozordan hafsalamiz pir bo'lib chiqdik. O'rtog'im bilan xayrlashib, bekatdagi yog'och kursiga cho'kdim. Shu choq har ayol qo'lidagilarni ko'tarishga yordamlashib yuborishimni so'radi. Yuraverib holdan toygan bo'lsam-da, yo'q demay, ayolni uyigacha kuzatib bordim. Shu artofdagi xonadonda turar ekan. Suhbat davomida gap aylanib, menga keldi. Ijara uchun uy qidirayapman desam, menga rahmi kelganidanmi yoki miyasiga bundan boshqa fikr kelmadimi, xullas, "Turmushga chiq!", dedi uzil-kesil...

Oy oxirlayapti. Bekamiz uyni tezroq bo'shatishimizni istaydi. Oilali ijarachilarni qo'yarmish.

Bu kabi ko'tara tashvish bilan bitta men yoki o'rtog'im emas, olis viloyatlardan osmon qadar orzular bilan kelgan hamma talabalar andamon. Respublikamizda oliy o'quv yurtlari tasarrufida 220 dan ortiq talabalar turar joyi bor. Ular faqat 58 ming talabani sig'dira oladi. Biroq har yili 194 ming nafardan ziyod talabani yotoqxonaga ehtiyoji bor. So'ngi yillarda oliy ta'lim muassasalari soni 130 dan oshgan bo'lsa, qabul kvotasi 2,6 barobarga ko'paydi. Ammo yotoqxonalar shunga mos ravishda ko'paymadi.

Xullas, dardimni aytdim shabbodaga, shabboda yetkazar balki mutasaddilarga... Dardimiz ularga yetib borguncha shoir she'rini qalbmizga malham qilib turamiz:

**Gazetada o'qidim – hayotimiz zo'ir,  
Radio bong urdi – maosh oshibdi.  
Televizorni yoqsam – hammasi yaxshi  
Vatan xizmatiga yurak oshiqdi.**

**Yo erta tug'ildim, yoki juda kech,  
Sababi negadir baxtim kulmaydi.  
Ijaraga to'lab oylik yarmini  
Yashashni yaxshi deb yozib bo'lmaydi.**

**Senda musofirman, senda fuqaro,  
Senda ruhim asir, iskanjaba tan.  
"O'lan to'shagim" deb yozaman ammo  
Senda ijara yashayman vatan.**

**Noshud deb atama, nonko'r demagin,  
Shoirim desang bas xursandman meni.  
Har oy puling to'lab, ko'chishga tayyor  
Ijara uyimday sevaman seni.**

Ha aytgancha, mabodo saxiyligingiz tutib, ijara qo'yish niyatingiz bo'lsa, bizga xabar qiling. Do'ppidek osh qilib berardik...

**Qirmizoy HAKIMOVA**



# KADRLAR SALOHIYATINI TAKOMILLASHTIRISH – DAVR TALABI

**Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Rennessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Albatta jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi".**

Darhaqiqat, yangi davr yoshlarining kuchli, bilimli va jismonan yetuk kadrlar bo'lishi uchun ularga keng imkoniyatlarni yaratib berish va qo'llab-quvvatlash asosiy maqsadlarimizdan biri hisoblanadi, mamlakatimizda barcha sohalar kabi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida ham keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi farmoniga asosan, Ichki ishlar vazirligi Yong'in xavfsizligi instituti O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga o'tkazilib, "Akademiya" maqomi berildi hamda harbiylashtirilgan tuzilmalarning oliy ta'lim tashkilotlariga o'quvchilarning o'qishga kirishi uchun tayyorgarligini ta'minlovchi ixtisoslashtirilgan litsey tashkil etilishi belgilab berildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2019-yil 28-iyundagi "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zahirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Favqulodda vaziyatlar vazirligining Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi tashkil etildi. Harbiy-akademik litseyi o'quv-uslubiy ishlarini amalga oshirishda Akademiyaning pro-



fessor-o'qituvchilari bilan yaqindan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini yanada oshirish, aholi va hududlarning muhandislik muhofazasini takomillashtirish, avariya qutqaruv ishlarini tashkil qilish, olovga chidamli qurilish materiallari va matolarining yangi turlarini yaratish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Akademiya huzurida tegishli tartibda texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash tuzildi. Ilmiy kengash 05.10.02 – "Favqulodda holatlarda xavfsizlik: Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi" va 05.10.01 – "Mehnatni muhofaza qilish va inson faoliyati xavfsizligi" (texnika fanlari) ixtisosliklari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalarini ilmiy

seminarda muhokama qilish va himoyani o'tkazish vakolatiga ega bo'ldi.

O'tgan vaqt davomida FVV Akademiyasining uch nafar mustaqil izlanuvchisi ixtisoslashgan ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar muhokamasidan muvaffaqiyatli o'tib, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi. Shuningdek, qator ilmiy-tadqiqotchilar texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'ldilar. Professor-o'qituvchilarning ilmiy ishlar uchun Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligidan ixtirolar uchun patent olindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining tegishli qarorlari bilan FVV Akademiyasi yosh o'qituvchilaridan 4 nafariga "dotsent" ilmiy darajalari berildi. Natijada Akademiyaning ilmiy salohiyati yanada yuksaldi.

Imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, Akademiyada davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida ikki yilga mo'ljallangan ikkita davlat granti – "Mahalliy mineral xom ashyolar asosida qiyin yonuvchan is-siqdan saqlovchi tarkiblar olish texnologiyasini yaratish" hamda "Yangi avlod metallorganik oligomer qo'shimchali olovbardosh, issiqlik izolyatsiyalovchi qurilish materiallarini tadqiq etish va texnologiyasini yaratish" loyihalari ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

2021-yil 21-26-avgust kunlari Qozog'iston Respublikasi Olma-ota shahrida sportning "Armrestling" turi bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida Akademiyaning "Harbiy va jismoniy tayyorgarlik" kafed-rasi katta o'qituvchisi, katta leytenant Rustam Choriyev uchinchi o'rinni qo'lga kiritgan



Respublika miqyosidagi fan olimpiadalarida Akademiyaning iqtidorli kursantlari munosib ishtirok etib, sovrinli o'rinlarga ega bo'ldi. Jumladan, "Gidravlika" fanidan 4-kurs kursanti Ravshanbek Jalilov birinchi, "Avtomobil tayyorgarligi" fanidan 1-kurs kursanti Fayozbek Mamasoliyev ikkinchi hamda "Milliy g'oya, huquqshunoslik, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" fanlaridan 5 kurs kursanti Sultanbek Urazimbetov uchinchi o'rinni egalladi.

2021-yil 21-26-avgust kunlari Qozog'iston Respublikasi Olma-ota shahrida sportning "Armrestling" turi bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida Akademiyaning "Harbiy va jismoniy tayyorgarlik" kafed-rasi katta o'qituvchisi, katta leytenant Rustam Choriyev uchinchi o'rinni qo'lga kiritgan

bo'lsa, 5-kurs kursanti Hurmatillo Madzimov ikkinchi o'rinni egallab, jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 2021-yilning 23-noyabr–3-dekabr kunlari Ruminiyaning Buxarest shahrida o'tkazilgan "Armrestling" turi bo'yicha jahon chempionatida ham faol ishtirok etishdi.

2021-yil – Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili doirasida Toshkent shahrida joylashgan muassasa hamda harbiy qismlardagi Yoshlar itti-foqining boshlang'ich tashkiloti yetakchilari o'rtasida o'tkazilgan "Yilning eng faol yoshlar yetakchisi" ko'rik-tanlovida Akademiyadagi yoshlar boshlang'ich tashkiloti yetakchisi, katta leytenant Firdavs Karimov birinchi o'rinni egalladi.

Yangi O'zbekistonda ilm-fani yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash borasida muhim amaliy ishlarni davom ettirishimiz zarur. Yoshlarni bugun qanchalik ilmiy, ma'naviy, ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlasak, kelajagimiz shunchalik yorqin bo'ladi.

**Choriyev XO'JANOV,**  
FVV Akademiyasi  
boshlig'ining o'rinbosari,  
polkovnik




## AHOLINI RO'YXATGA OLISH TADBIRI

### bizga nima beradi?

JARAYON

azirlar

Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, Mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor 2023-yil 1-25-noyabr kunlari aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilishi belgilangan.



Bu bizga nima beradi?

Aholi sonini ro'yxatga olish mamlakatda yashovchi barchaga tegishli bo'lgan demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, baholash, tahlil va e'lon qilishning samarali usulidir. U aholi to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbasi bo'lib, kelgusi 10-20 yillik rivojlanishning

prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash uchun ishonchli poydevor yaratadi. Aholi migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi.

O'z navbatida, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqishda axborot tarzi-da foydalaniladi. Aholi sonini ishonchli hisoblash bo'yicha rasmiy statistika tizimida asosiy rol o'ynaydi.

**Davron TOHIROV,**  
Yunusobod tumani  
statistika bo'limi boshlig'i



**В четырех тысячах махаллей республики питьевая вода подается на 4–6 часов в сутки. Централизованное водоснабжение не налажено более чем в полутора тысячах сходах граждан. Около двух тысяч детских садов, школ и медицинских учреждений из-за отсутствия подключения к центральной сети вынуждены искать альтернативные пути получения воды.**



**ПРОБЛЕМА И ЕЕ РЕШЕНИЕ**

# Последняя капля

Такие цифры Президент Шавкат Мирзиёев озвучил на видеоселекторном совещании, посвященном вопросам улучшения системы питьевого водоснабжения в регионах.

В начале заседания глава государства отметил, что за последние пять лет на данное направление выделено 10 триллионов сумов. Это в пять раз больше, чем в предыдущие годы. Благодаря таким вложениям удалось обеспечить чистой питьевой водой 6,5 миллиона человек. Например, в 2021 году проложено около 6,3 тысячи километров сетей водоснабжения, улучшено обеспечение водой более двух миллионов жителей 592 махаллей.

Вместе с тем в сфере остаются нерешенные проблемы. Так, уровень снабжения питьевой водой в Кашкадарьинской, Сурхандарьинской и Джизакской областях составляет менее 60 процентов. В Гузарском, Дехканабадском, Касанском, Шерабадском, Ангорском, Галляаральском и Хатырчинском районах этот показатель ниже 30 процентов.

Поэтому в ближайшие пять лет в сферу планируется инвестировать 40 триллионов сумов,

что позволит довести охват населения питьевой водой до 90 процентов, а охват канализацией – до 35 процентов. В 2022 году на эти цели будет выделено два триллиона сумов из бюджета и привлечено 245 миллионов долларов.

Глава государства подчеркнул, что основное внимание уделяется районам с низким уровнем и качеством водоснабжения. В ближайшие два года должны быть обеспечены питьевой водой две тысячи детских садов, школ и медицинских учреждений.

Сегодня в 1545 махаллях отсутствует система централизованного водоснабжения. Ответственным ли-

цам поручено изучить имеющиеся возможности и решить проблему одним из трех способов. Там, где есть инфраструктура, может быть налажено централизованное водоснабжение. При наличии подземных запасов пресной воды предложено строить скважины. В тех селах, где нет возможности соорудить колодцы и проложить сети, будет использоваться третий способ – строительство вместительных резервуаров, которые станут наполняться привозной водой. К этим работам планируется привлечь частный сектор, предпринимателям предоставят субсидии и льготы.

Глава государства поручил до 1 мая провести полную инвентаризацию махаллей, не имеющих водоснабжения, и классифицировать их.

Кроме того, Президент указал на необходимость разрабатывать отдельную программу по Кашкадарьинской области, где показатель питьевого водоснабжения – 42 процента – самый низкий по республике.

Подготовила  
Лилия РУСАНОВА



**НАСЛЕДИЕ**

# Сохраняя облик города

**Фонд развития культуры и искусства продолжает работу по сохранению уникальности и культурно-исторического наследия древних махаллей Ташкента.**

Важный шаг в этом направлении – создание на территории Старого города двух арт-резиденций.

Их дизайн-концепция разрабатывается в партнерстве с архитектурным бюро Studio KO (Марокко) с учетом мировых стандартов. Проект будет реализован при меценатской поддержке благотворительного фонда Алишера Усманова «Искусство, наука и спорт».

Для организации творческого пространства выбраны два объекта, находящиеся в Алмазарском районе столицы. Первая арт-резиденция разместится в махалле «Намуна», в медресе Маткаримбой, которое планируется отреставрировать с сохранением его традиционного архитектурного облика. Вторая – в махалле «Хаст Имам», в здании бывшего детского сада.

Арт-резиденции в Ташкенте станут образовательной платформой Центра современного искусства, а также площадками для коллаборации между отечественными и международными представителями креативного класса.

Ранее столичные махалли включили в Предварительный список Всемирного культурного наследия ЮНЕСКО. Это даст возможность в дальнейшем номинировать их в Список Всемирного наследия.



Ольга ЛИДИНА

Медресе Маткаримбой и план его реставрации.

## Новости

### Новый формат работы

В Молодежном пресс-клубе состоялась конференция, посвященная сути и значению постановления Президента «О мерах по кардинальному совершенствованию системы работы с молодежью в махаллях».

На встрече обсуждались внедряемая в сходах граждан новая система работы с молодежью, управленческие механизмы, необходимость решения проблем непосредственно в махалле и дальнейшее повышение эффективности духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях.

Заслушаны предложения по содействию социально-педагогической реабилитации и адаптации молодежи, освободившейся из мест лишения свободы, вернувшейся из специализированных учебно-воспитательных учреждений. Особое внимание уделено популяризации спорта, проведению соревнований и акции «Юный эколог».



### В тени деревьев

Весной 2022 года в сходах граждан Ташкентской области планируется посадить 10 миллионов 142 тысячи саженцев.



На эти цели выделены миллиард 636 миллионов сумов. В зависимости от климатических условий и плодородия почвы выбор будет сделан в пользу засухоустойчивых деревьев. Для орошения зеленых насаждений требуется 530 километров ирригационных систем, из них 225 километров строят и 135 километров ремонтируют.

Планируется прорыть 241 километр дополнительных каналов и внедрить 118 километров системы капельного орошения. Поливать саженцы будут с помощью специальных насосов.

Также выявлено 205 свободных гектаров, где посадят 128 тысяч деревьев.

### «Бирлашган» будет процветать

В махалле «Бирлашган» Сардобинского района Сырдарьинской области, внесенной в список территорий с тяжелыми условиями, осуществляется работа по благоустройству.

Приведены в порядок железобетонные столбы, дороги, устранены неполадки в электроснабжении. Должностные лица Управления юстиции Сырдарьинской области и областного управления Агентства государственных услуг оказывают выездные услуги и консультируют жителей.

В целях создания дополнительных удобств для населения «Мобильная офтальмологическая клиника» в махалле оказывает гражданам бесплатную медицинскую помощь.

### Славная история воинской части

Для молодежи, проживающей в махаллях Термезского района и на центральных территориях Сурхандарьинской области, в воинской части Термезского гарнизона Министерства обороны проведен день открытых дверей.



Юноши и девушки ознакомились с современным вооружением, побывали в учебных классах воинской части, классах Амира Тимура и Джалалиддина Мангуберди, современном спорткомплексе, а также в комнатах отдыха, где проводят досуг защитники Родины. Большое впечатление на ребят произвело посещение музея, где представлено много экспонатов, рассказывающих о славной истории воинской части.

Мероприятие организовано в рамках исполнения постановления «О мерах по кардинальному совершенствованию системы работы с молодежью в махаллях».





ванию историк-востоковед, стал писателем. А как Алена Перепеда, обучавшаяся немецкому в Узбекском государственном университете мировых языков, попала на радио?

— Журналистика меня привлекала всегда, но после школы не хватило смелости и поддержки. Мамина подруга провела психологические тесты, и они выявили склонность к работе с информацией. Родителям показалось по-другому. Стала отговаривать: «Нужны публикации. Ты не потянешь...»

Почему иностранный язык? Все пошло, и я пошла. Изучала немецкий, делала художественные переводы в процессе учебы. Все равно ни о чем не жалею. Прекрасные студенческие годы! Проходила практику в 60-й школе. И с детьми общий язык нашла, а все равно чувствовала: не мое это. Поняла:

А ведь думала, что буду работать либо в гляцевых журналах, либо на телевидении. Даже практика проходила на ТВ. Радио — это любовь навсегда! Однажды попал туда, сложно представить себя в другой сфере.

— Как началась ваша работа? Чувствовали себя достаточно подготовленной?

— В первое время ощущала себя абсолютно зеленой. Резко «в воду» не бросили, вводили в курс постепенно. Сначала поручали бриллианты на улице. Кстати, было сложно подходить к незнакомым людям, о чем-то спрашивать. В ответ могли и нагрубить. Потом стала участвовать в подготовке передачи «Воскресный калейдоскоп»: посещала интересные мероприятия, собирала информацию. Сразу поняла, что

ные вопросы из истории столицы. Все в режиме реального времени. Увлечательно.

— С какими трудностями пришлось столкнуться и как их преодолевали?

— Очень сложно было слышать свой голос. Пришлось работать над дикцией, повышать ее качество. Многократно проговаривала слоги, слова. Мне советовали их пропевать. Как я старалась! Прежде чем зайти в студию, по несколько раз вычитывала текст. Чуть ли не заучивала наизусть. И все равно ужасно нервничала, в результате запиналась. Поддерживала наставница Наталья Юдина: «У вас все получится!»

Первое время было сложно, но я не сдавалась. Наконец наступил момент, когда услышала от руководства: «Мне нравится,



# РАДИО — ЭТО ЛЮБОВЬ НАВСЕГДА!

## В ЭФИРЕ

**Рядом две даты: 13 февраля — Всемирный день радио (провозглашен в 2011 году, впервые отмечался в 2012-м) и 14 февраля — день рождения Захириддина Мухаммада Бабура (1483–1530). Сколько за годы независимости в эфир выпущено передач, посвященных этой уникальной личности, вряд ли поддастся счету.**

Журналист Алена ПЕРЕПАДА, старший редактор государственного учреждения «Телерадиоканал «O'zbekiston 24», с особой теплотой вспоминает программу, где говорилось о романе Пиримкула Кадырова «Бабур» («Звездные ночи»).

— Каждый представитель СМИ, в очередной раз обращаясь к знакомой теме, подбирает новую информацию, ту изюминку, которая должна не просто привлечь внимание, а вдохновить на самостоятельный поиск, размышления. Какой ракурс выбрали?

— Клуб читающих мам, в котором я состою, организовал встречу по обсуждению прочитанной книги. Выбор пал на роман Пиримкула Кадырова, в основу которого положен уникальный историко-прозаический труд «Бабурнаме». Координатор Юлдуз Алакбарова рассказала, как возникла идея коллективного прочтения романа и какие впечатления он произвел на членов клуба. Один из пабликов называл произведение вдохновляющим, и... Юлдуз вдохновилась. Было решено обсудить книгу в кругу читающих мам. У писателя живой язык, повествование динамичное, увлекательное, охватывает

границы общения, научиться решать конфликтные ситуации. Собеседница призналась, что также с особым вниманием перечитывала страницы, отражающие отношения «отец — сын» (Бабура — Хумаюн). Ее поразило их уважение друг к другу, хотя в те времена были нередки случаи беспощадной борьбы за престол между кровными родственниками. «Они настолько близки, — подчеркнула координатор клуба, — что у Бабура ни разу даже мысли не возникло о возможных претензиях Хумаюна».

Одна из основательниц клуба Феруза Абидова провела параллель между «Звездными ночами» и «Великолепным веком», отме-

о политических дрягях. Трудности были еще и в том, что в Советском Союзе не было в достаточной степени развито бабуроведение. Приходилось обращаться к англоязычным источникам, изданным в Индии, переводить, додумывать в диалоги. Перед художественным вымыслом ставилась

задача — достичь максимального правдоподобия. Требовалась особая смелость, чтобы писать об этой противоречивой исторической фигуре, деятельности которой давали одностороннюю характеристику, представляя захватчиком чужих земель. Мы воспринимали Бабура как родного, как члена семьи. Папа — как устоза. За спиной у него висело созвездие с вышитым портретом шаха».

На встрече, проведенной в Национальной библиотеке имени Алишера Навои в рамках проекта Infolib с приглашением учащих лицеев, тоже был сюрприз. О нем рассказала администратор Клуба читающих мам Саида Рашидова. Внучка писателя Гузаль Кадырова нарисовала детальный портрет дедушки в работе. Об этом тоже говорилось в передаче, едва вставшей всю информацию. Такие встречи важны для молодежи. Они помогают вспомнить наши корни.

монтаж нужно освоить самой. Гораздо быстрее и удобнее делать это без помощи оператора. Не надо объяснять, что вырезать, а что оставить. Следом дали еще одну передачу...

Была совсем молодой, не обремененной семейными хлопотами. С утра до вечера пропадала на каких-то встречах, презентациях, готовила материалы, полностью погружилась в работу. Дальше — прямые подключения. Нужно передать слушателям атмосферу мероприятия, рассказать о событии, представить гостя, дать ему слово... Приходилось поволноваться. В эфире не должно быть пауз: время на вес золота. Вошла во вкус, стало достаточно легко все получаться. Потом доверили и самое сложное — прямую эфир.

Помню, пригласили вести викторину Ziyonet, посвященную 2200-летию Ташкента, где разыгрывались призы. Звонили радиослушатели — им задавали интерес-



в размерах и все-все рассмотреть. Ну вот, попала, узнала, а теперь, быть может, сама стала таким маленьким человечком для какого-нибудь любознательного ребенка.

— Как готовите свои программы?

— Бывают передачи, собранные из разных событийных сюжетов. Хожу на мероприятия, записываю интервью, готовлю сопровождающие тексты, монтирую, пишу подводу к озвучкам, потом собираю в общую картинку. Как пазл. Для интервью приглашаю на радио тех людей, которые мне самой интересны. Отскать их в век социальных сетей, интернета не составляет труда. Нередко участники программ становятся моими добрыми друзьями.

Во время пандемии изменился формат передачи «Читаем вместе». Гостей в студию не приглашали и о книге с ними не говорили. Возникла идея аудиорассказов. По неопытности сначала влезла за большое произведение — «Каштанку» Чехова. В процессе заметила, что читаю очень долго и текст растягивается на три или четыре радиопрограммы, а так делать нельзя. Изображала в эфире героев-животных, потом открыла библиотеку звуков. Озвучивать мужские реплики пригласила ведущего Арсена Ахмадиева. Стала внимательнее подбирать рассказы, не занимающие больше 20 минут. Важно, чтобы в произведениях была душа. На какой-то период передача сделалась моей любимой.

learning (обучение на протяжении всей жизни). Важно повышать квалификацию в любой профессии. Живем в стремительно меняющемся мире: не будешь соответствовать — безнадежно опоздаешь. Как написано у Льюиса Кэрролла: «Нужно бежать со всех ног, чтобы только оставаться на месте, а чтобы куда-то попасть, нужно бежать как минимум вдвое быстрее».

Хожу на всевозможные тренинги, семинары. К нам третий год приезжают российские репортеры с обучающим проектом «Школа реальной журналистики». Когда впервые попала на него,

конец 2021 года стала экоблогер Мутабар Хушвактова. Девушка организовала фонд помощи людям, которые занимаются благоустройством нашего города. Перед Новым годом купила им подарки, вручила продукты для праздничного плова. Чтобы подготовить сюжет, я приняла участие в благотворительной акции «Ангелы чистоты». Была потрясена. Глубоко уважая труд работников служб благоустройства, никогда не задумывалась, с какими проблемами им приходится сталкиваться.

А из самого раннего, пожалуй, не смогу забыть материал о дельфинах. Воодушевленная, договорилась об интервью с их тренером и отправилась в цирк. Как будто оказалась на другой планете. Позже открыла для себя грустную истину: какой ценой расплачиваются эти добрые создания, развлекающие людей. Не знала, что условия, в которых они содержатся, и перевозка так серьезно сказываются на их состоянии. В неволе они живут намного меньше и более подвержены разным заболеваниям. Правда о дельфинах все во мне перевернулось. Никогда не пойду туда сама и не поведу своих детей.

## Радио — это отличная школа. Однажды попал туда, сложно представить себя в другой сфере.



тив, что подчас мы чужую историю знаем лучше своей. Тема, затронувшая до глубины души, — романтическая юношеская любовь к Айше. Отношения с Хонзоды-Бейге — образец абсолютного понимания между братом и сестрой.

— Радиослушатели и представить не могли, какой сюрприз преподнесет им Клуб читающих мам города Ташкента.


— Роман «Звездные ночи» — художественное воспроизведение исторических фактов. Написан по заказу Шарфа Рашидова. Пиримкул Кадыров долго собирал информацию по крупицам, ездил за ней в Индию и Пакистан. Еще дольше пришлось ждать выхода произведения в свет.

Вместе с автором за судьбу его детища переживала вся семья. Находясь в Узбекистане, Алмаз Кадырова-Хукстра, дочь писателя,

— Анализировав чужое восприятие творчества, наверняка сравнили с собственными предпочтениями.

— Люблю лирику автора, который стремился сделать газету менее витиеватой, придать им жизненное звучание. Бейги, разбросанные по тексту, возвращают к переживаниям изгнанника. Кстати, темы родины и любви у Бабура искусно переплетены. Бейг, находящийся отклик в сердце: «Нам нравится подчас то больше, что вдали: что далеко от нас, дни, что давно прошли». Верно подмечено!

— Получилась информационно насыщенная, познавательная программа. С живыми эмоциями и мотивационным посылом. Пиримкул Кадыров, по образ-



Привлекает лирика Бабура, который стремился сделать газету менее витиеватой, придать им жизненное звучание. Бейги, находящийся отклик в сердце: «Нам нравится подчас то больше, что вдали: что далеко от нас, дни, что давно прошли». Верно подмечено!

как заметки и новости читает Алена Перепеда. Правильную интонацию берет». Самый приятный комплимент. Спустя время все наладилось. Научилась владеть своим голосом: для разных ситуаций и жанров — своя интонация, свой тембр.

Приходилось и учиться различать информацию по принципу «можно/нельзя говорить». Могла что-то не то сказать из-за незнания. Директор относился с пониманием: «Не вздумай больше так говорить!» Сейчас другое время. Мы свободно обсуждаем то, что запрещалось лет десять назад.

— Что для вас радио?

— Отличная школа. Бытует мнение, что из радиодисков получаются прекрасные телеведущие. Радио иногда сравниваю с книгой. Читая, мы рисуем фантастические миры. Когда слушаем эфир, наш мозг тоже рисует, представляет услышанное. Идет интеллектуально-творческое восприятие информации. В эпоху клипового мышления нужно включать свой внутренний «киноаппарат».

Радио — это мечта из детства. Большой радиоприемник на ножках был у дедушки. Он всегда ждал последние известия по «Маяку». По воле судьбы мы сейчас находимся на той же волне — FM 87.9. Слушала передачи, а в воображении не укладывалось, как туда попали маленькие человечки и говорят. Хотелось тоже уменьшиться

— Слушаете свои программы в эфире?

— Крайне редко. Времени не хватает. Работы слишком много: подготовить, отрепетировать, собрать, наложить музыку... Нужен определенный ритм. Выпустили — выдохнули — пошли дальше. Сделать необходимо как можно быстрее. Однако для Telegram-канала @radiobudni переслушиваю, что-то корректирую. Что попало в интернет, остается в нем на веки вечные.

— Настоящий специалист учится всю жизнь. Как это делаете вы?

— Согласна. В наш скоростной век это особенно актуально. Даже концепция такая есть — lifelong

— Волнуетесь ли перед выходом в эфир?

— Сложно ответить однозначно. Когда долго не выходишь в прямой эфир, волнение есть. Навыки теряются. Когда это происходит каждый день, переживаешь не так сильно. Однако остается ответственность. Всегда вычитываю текст, проверяю ударения. Это одна из самых проблемных сфер языка. Сколько бы лет ни работала на радио, сомнения периодически возникают. А в передаче обязательно должен прозвучать правильный вариант. Мы не имеем права на ошибку.

— Что вам больше всего нравится в работе?

— Удивительные люди, новизна, мероприятия, куда бы никогда не попала, не будь радищиком. Каждый день подарки судьбы. Всегда подтверждаем это в разговорах с коллегами: «Какая же у нас замечательная работа!»

— Какие встречи вам особенно запомнились?


— Сложно выбрать какую-то одну. Все мои гости — интересные, потрясающие, замечательные люди. К примеру, открытием

Беседовала  
Ольга АЛЕКСАНДРОВА



# ДАРИТЕ КНИГИ С ЛЮБОВЬЮ!

## МНОГОПЛАНОВАЯ БИОГРАФИЯ



Десятиклассница  
Хонзода ШАРИПОВА:

– Новое издание «Бабурнома» – всем подарком подарок, потому что уникальный. Привлекательное внешне, оно содержит настоящее сокровище внутри. Можно подарить и филологу, и историку, и географу, и биологу, и военнослужащему... Есть рассуждения о чистоте языка и литературе того времени, об устройстве общества, междоусобных распрях и правите-

лях, описание климатических особенностей, флоры и фауны, анализируются сражения.

По воле судьбы сравнительно молодой праздник – Международный день дарения книг – совпадает с днем рождения Захириддина Мухаммада Бабура. А меня, чем очень горжусь, назвали именем его сестры Хонзоды-бегим. Могу ли в этот день думать о какой-то другой книге?!

Читаешь подробные описания (только птицам Индии посвящено пять страниц!) и удивляешься: как удалось шаху в походе выкраивать время для путевых заметок? Думаю, тем, кто отличается любознательностью и желает больше знать об истории своего народа, подарок понравится.


## СПОСОБНОСТЬ ИЗМЕНИТЬ ЖИЗНЬ

Одиннадцатиклассница  
Камола ИСКАНДАРОВА:

– К сожалению, с изменением ритма жизни конфликты родителей и подростков участились. И молодежь ищет такую литературу, которая бы отражала реальность и помогла решать проблемы «отцов и детей». Поэтому дарю бы таким семьям роман Эшли Дьюэл «Домой не по пути». Как бы то ни было, в напряженной семейной атмосфере виноваты обе стороны. И выход нужно искать вместе, быть внимательнее друг к другу.

А что делать, если отец называет дочь ошибкой? Если родители не приходят к ней на выпускной?

Писательница показывает, что страданиями и взаимными упреками ничего не добьешься. Не получается достучаться до родителей – мейяй себя. Увидев, как прекрасен мир, по-другому посмотришь и на самых близких людей, сможешь их простить, как делает героиня Эшли Дьюэл.



## С МЕЧТОЙ О НЕБЕ

Восьмиклассник  
Шохжахон АБДУШАКИРОВ:

– Когда объявили онлайн-обучение, моим хорошим другом стала книга «Пламенные моторы». Читал ее с удовольствием, потому что мечтаю летать и хочу побольше узнать об авиации. Вообще, вызывает интерес все, что связано с небом, с полетами. Недавно в библиотеке обнаружил издание из серии «Жизнь замечательных людей», где подробно рассказывается о Циолковском. Чуть позже возьму почитать.

А пока нахожусь под впечатлением от биографии гениального конструктора Архипа Люльки. Выдающийся создатель «вечных» двигателей для реактивных самолетов, можно сказать, переписал историю авиации. Его моторы установлены на истребителях Су-7, Су-11, Су-24 и других.

Мой друг Артем тоже «болеет» небом. Если б удалось отыскать бумажный вариант этой книги, вручил бы ему. Советую издание тем, кто увлекается авиацией.

Хотите отправиться в незабываемое путешествие на машине времени, с легкостью возвратиться в прошлое или оказаться в будущем? Хотите найти новых преданных друзей? В этом вам поможет хорошая книга.

Издавна ее называют лучшим подарком.

Он тогда лучший, когда преподносится книголюбу с учетом его интересов, увлечений.

В школе №209 Мирзо-Улутбекского района столицы есть замечательная традиция – устраивать презентации понравившихся произведений с использованием компьютерных технологий. Учащиеся рассказывают о романах и повестях так, чтобы с ними захотелось подружиться. Причем как можно скорее. Мобильные агитбригады на примере собственного опыта пропагандируют чтение по классам.

Старшеклассников попросили представить, какую бы книгу они подарили своему другу или родственнику. Вот какие ответы мы получили.

## ИЩИ СЧАСТЬЕ РЯДОМ!

Одиннадцатиклассник  
Эрик АЛОЯН:

– По-моему, мир нуждается в общем подарке – вроде апокалиптического романа-антиутопии Дмитрия Глуховского «Метро 2033». Обстановка накалена, то там, то здесь возникают вооруженные конфликты. Но есть еще самое страшное оружие, способное убить все живое на Земле. Кто останется после Третьей мировой, как сложится жизнь этих людей?

Здорово получить в подарок бестселлер Пауло Коэльо «Алхимик», философское произведение о главном богатстве, которое дает человеку счастье! Это его родной дом, и не надо искать лучшей судьбы в чужих краях. Пастух Сантьяго осознает это после многих испытаний, когда возвращается на родину. У каждого свой путь, не стоит сворачивать с него и отправляться за тридевять земель за миражом.

Какой интеллектуальный подарок по душе мне? Книги по саморазвитию, которые не просто помогают расширять кругозор, говорят об умных вещах, но и учат «корректировать» себя как личность.

Записала Полина ЛЮДИНИНА



**ANA XOLOS!**

Umrimizning deyarli teng yarmi yo'llarda o'tadi. Ishga borib-kelish, biror yaqinimizni ko'rish uchun ham bir necha kilometrlik masofani bosib o'tamiz. Lekin bu yo'llarda hammamiz ham xavfsizlik qoidalariga ham to'liq amal qilmaymiz. Yo'llarda avtohalokatlar, qoidabuzarliklarni ko'raverib, ko'zimiz pishgan. Ijtimoiy tarmoqlarda xavfsizlikni ta'minlovchi xodimlarning ustidan arz qilib, kinoyalari hazillar qilib chiqqan insonlarni ham uchratamiz. Ammo aybni hech o'zimizdan qidirib ko'rmaymiz.

## BIR KUNDA 4 MINGDAN ORTIQ QOIDABUZARLIK ANIQLANGAN!

Yo'llarimizda qoidabuzarliklar shu qadar ko'pki, ba'zan nafaqat ta'bingiz xira bo'ladi, balki ko'nglingiz ayniydi. Qarang, quyida yo'llarimizning bir qismidagi bir kunlik qoidabuzarliklar statistikasini keltiramiz. ATIGI BIR KUNLIK!

### 2022-YIL 8-FEVRALDAGI HOLAT:

Kun davomida 157 marta qoidaga xilof ravishda odam tashish, 179 ta quvib o'tish qoidalarini buzish, 18 ta mashina boshqaruvida mobil aloqa vositasidan foydalanish, 147 ta svetoformning taqilovchi chirog'iga rioya etmaslik holati aniqlandi. Axir ular shu paytda ko'pchilik insonlarning hayotiga nuqta qo'yishi mumkin edi.

**Mana bu qoidabuzarliklarga e'tibor bering:**

- xavfsizlik kamaridan foydalanmaslik – **961 ta;**
- piyodalar yo'lining harakat qismini kesib o'tish – **567 ta;**
- yo'l belgilariga amal qilmaslik – **363 ta;**
- yo'l chiziqlarini bosish – **192 ta;**
- piyodalar yo'lagidan yurish, no'to'g'ri yoritish, loy sachratish – **107 ta;**
- majburiy sug'urtasiz transportdan foydalanish – **96 ta;**
- avtoulovni tegishli hujjatlarsiz boshqarish – **71 ta;**
- mayda to'qnashuv, ya'ni kichik yo'l-transport hodisalari – **59 ta;**
- piyodalar yo'lakchasiida piyodalarga yo'l bermaslik – **31 ta;**
- mashinani texnik ko'rikdan o'tkazmaganlik – **14 ta;**
- to'xtash va to'xtab turish qoidalarini buzish – **13 ta;**

- ruxsatnomasiz oynalarni qoraytirish – **11 ta;**
- sababsiz tovush signalini berish, chiqarish, o'rnatish – **7 ta;**
- tibbiy ko'rikdan bo'yin tovlash – **5 ta;**
- inspektorga bo'ysunmaslik – **5 ta;**
- avariya holati – **4 ta;**
- boshqaruv huquqsiz avtomobilni boshqarish – **4 ta;**
- ruxsatnomasiz qayta jihozlash – **2 ta;**
- yo'l inshootlariga zarar yetkazish – **1 ta...**



Bu hali hammasi emas! Shu fevral kuni "Hamkor" avtoekipajlar bilan birgalikda o'tkazilgan reytda tadbirlarida ham jami 824 ta qoidabuzarlik aniqlangan. Jumladan:

- qo'pol qoidabuzarlik – **267 ta;**
- transport vositasini mast holatda boshqarish – **12 ta;**
- svetoformning taqilovchi chirog'iga rioya etmaslik – **45 ta;**
- avtoulovni tegishli hujjatlarsiz boshqarish – **68 ta;**
- qonuniy talabni bajarmaslik – **6 ta;**
- ruxsatnomasiz oynalarni qoraytirish – **5 ta;**
- ovoz so'ndiruvchi moslamalardan foydalanish – **1 ta;**

– boshqa qoidabuzarliklar – **687 ta.**  
**92 ta** holatda transport vositalari jarima maydoniga joylashtirilgan.

Bundan tashqari, tungi xizmat davomida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida to'xtatilgan transport vositalarini ko'zdan kechirish jarayonida jinoyat elementlar: qurol-yarog', o'q-dori, narkotik moddalar, psixotrop dori vositalari, pichoq, beysbol tayog'i kabi jismlarni olib yurgan fuqarolar ham bo'lgan. Avtomobillar yuxxonasi va saloni tekshirilganda **173 ta** qoidabuzarliklar kuzatilgan. Masalan, **15 ta** holatda tig'li jismlar, **3 ta** holatda narkotik va psixotrop moddalar olib yurilgani aniqlangan. **2** nafar qidiruvdagi shaxs qo'lga olingan.

Ushbu reytda tadbirlarida tungi 03:40 da Yangiyahot tumanida harakatlanib kelayotgan "Matiz" rusumli davlat raqami 01 037 TTH bo'lgan avtoulov to'xtatib tekshirilganda, avtoulov yo'lovchisi 1999-yilda tug'ilgan Sirg'ali tumanida istiqomat qiluvchi Sh.D.ning sumkasidan 1 dona "Tropikamid" nomli va 6 dona "Regapen" nomli psixotrop dori tabletkalari topilgan. Holat yuzasidan hujjatlar rasmiylashtirilib, tegishli choralar ko'rildi.

Shunday holatlardan biri soat 18:45 larda Bektemir tumanida yuz bergan. Tumanning Oltintopgan ko'chasida piyoda harakatlanib kelayotgan 1985-yilda tug'ilgan, Buxoro viloyati, Shofirkon tumani, Bobohaydar mahallasida istiqomat qiluvchi F.R. to'xtatib tekshirilganda u O'zbekiston Respublikasi JK ning 168-moddasi 2-qism bilan ayblanib, 262641/2021-726-sonli jinoyat ishi yuzasidan Bektemir tumani IIOFMB tomonidan norasmiy qidiruvda ekanligi



aniqlangan va tegishli hujjatlar rasmiylashtirib, Bektemir tumani IIOFMB JQB O'MIB t/v ga olib borib topshirilgan.

Bunday holatlar ko'p marta uchrayapti, ammo oxiri ko'rinmaydi. Ular nafaqat o'z hayoti, balki oila a'zolarini ham xavf ostiga qo'yayotganini nahotki bilishmasa. Yoki qoidalar buzish uchun yaratilgan, degan iborani o'zlariga shior qilib olganmikan? Nuqta, vergul, chiziqcha kabi tinish belgilari – qoidalar bilan matn go'zal va ohangdor bo'lgani kabi, hayotimiz ham qoidalar bilan qiziqarli va mazmunli-ku! Aslida, biz bir yozuvchi bo'lsak, yashayotgan umrimiz yangi yozilayotgan asar, qoidalar esa bizning hayot kitobimizda to'g'ri yashashimiz uchun berilgan belgilardir.

**Qahramon XUDOYBERGANOV,**  
Toshkent shahar IIBB YXHB  
axborot xizmati boshlig'i, mayor

**KO'RGAZMA**

## Ochilmagan tilsim

O'zbekiston tasviriy san'at galereyasida rassom Baxtiyor Mahkamovning "Ochilmagan tilsim" deb nomlangan 30 ga yaqin asarlaridan tashkil topgan ko'rgazma ochildi.

Ekspozitsiyadan rassomning "Kuy", "Yoshlik xotirasi", "Malika", "Sirli uchrashuv", "Yo'lbars Bobur", "Tutilish I va II", "Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asariga illyustratsiya", "Ochilmagan tilsim" turkumlari, "Raqsga tushayotgan darvish. Jannatda qish. Sarmast" kabi qator ijod namunalari o'r in olgan.

Rassom taqdim etgan kompozitsiya va qator lavhalarda madaniyatimiz tarixining ayrim jihatlarini, hayot falsafasi, insonlarning ruhiyat olami, xotin-qizlar siyosini, borliqning yashirin sirlari aks etgan bo'lib, ular tomoshabinni mushohadaga chorlaydi.

Ko'rgazma 2022-yil 3-martga qadar davom etadi.

Hasan ABDUNAZAROV





# O'ZBEKISTONDA KUTUBXONADAN KO'RA MEHMONXONALAR TO'RT MARTA KO'P FAMILIYASINI XATO YOZADIGANLAR QATLAMI SHAKLLANDI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Kutubxonaga yaqinlashar ekanmiz, uning peshtoqidagi yozuv e'tiborimizni tortdi. Unda AQSh faylasufi Jim Ronnga tegishli quyidagi so'zlar bitilgan: "Tushlik vaqtini o'tkazib yuborish mumkin, ammo umrning eng mazmunli qismini kitob o'qimasdan o'tkazib yuborish aslo mumkin emas".

Ko'zimizga tushgan yana bir chaqiriqda shunday deyilgan: "Bilim olish azobi — vaqtincha, bilimsizlik azobi — umrbod!"

Kutubxona 24 soat faoliyat ko'rsatadi. Hamma muk tushgan kitob o'qiyapti, kerakli joylarini ko'chirib olmoqda. Qizig'i, har bir stol ustida turgan kompyuterlarga hech kim burilib ham qaragani yo'q.

Hayratimni yashira olmay so'rayman:

— Nega talabalar oldida turgan kompyuterdan foydalanish maydi?

— Kitobxona gadjetlardan xohlagan joyda, istagan paytda foydalanish imkoniyati bor. Biroq kutubxonadagi kitoblarni faqat shu yerda o'qish mumkin. Bu imkoniyatni, qulay vaqtni boy berib bo'ladimi?! Kompyuterlar orqali talabalar o'zlariga kerak bo'lgan adabiyot qayerda turganini aniqlashda foydalanishadi, xolos.

Qo'shma Shtatlarda kutubxonalariga borish aholi orasida keng tarqalgan madaniy faoliyat turiga aylangan.

Kutubxonalarining jamiyat va mamlakat taraqqiyotidagi beqiyos roli ko'plab davlatlarda tan olingan. Jamoat kutubxonasi sarflariga bir dollar 10 dollargacha daromad keltirishi o'z isbotini topgan. Masalan, San-Fransisko jamoat kutubxonalarini tizimiga tikilgan har bir dollardan 5 dollardan 9 dollargacha daromad ko'rilayotgan ekan. Ehtimol, ushbu sarmoyaviy omil Qo'shma Shtatlarda jamoat kutubxonalarini soni "McDonald's" restoranlari va "Starbucks" qahvaxonalari sonidan ortib ketishiga sabab bo'lgandir.

## O'ZBEKISTONDA-CHI?

O'zbekistonda kutubxonalar soni qancha? Oxirgi 25-30 yilda nechta kutubxona bunyod etildi?

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda kutubxonalar soni mehmonxonalariga qaraganda to'rt marta kam ekan. Ko'pchilik nazdida zamonaviy mehmonxonalar, antiqa bino va inshootlar sayyohlarni ko'proq jalb qilarmish... Aslida bunday emas. Sayyohlar asl O'zbekiston, uning tarixi, madaniyati, odamlarning o'zbekona hayoti, turmush tarzini ko'rish uchun keladi. Gapning dangalini aytganda, kutubxonalar boshqa sayyohlik yo'nalishlaridan ham ko'proq sayohatchilarni jalb qilishga qodir.

Masalaga ana shu jihatdan yondashilganda, davlatimiz rah-



## QANDAY YO'L TUTGAN MA'QUL?

barining tashabbusi bilan Milliy kutubxona huzurida 186 ta tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarini tashkil etish to'g'risidagi muhim hujjatning qabul qilinishi, aytish joizki, kutubxonalar faoliyati rivojidagi muhim qadam bo'ldi.

Zotan, O'zbekiston Milliy kutubxonasi qadimiy ziyo o'chog'i bo'lib, 1870 — yilda tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O'zbekiston Milliy bog'i yaqinida Prezident kutubxonasi bunyod etilishi rejalashtirilgani ham xalqimiz uchun quvonchli yangilikdir. Adiblar xiyoboni va bog'dagi boshqa ma'naviyat ma'rifiy ob'ektlar bilan yaxlit majmuaga aylanishi kutilayotgan ushbu ziyo maskani 4 qavatli bo'lishi, bir vaqtda 1 ming 400 dan ziyod o'quvchilarga xizmat ko'rsatishi ko'zda tutilgan. Kutubxonada 1 million 500 mingta kitob saqlanishi bilan birga elektron adabiyotlar, multimedia mahsulotlari ham bo'ladi.

Har yili an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila" respublika tanlovlari g'oliblariga yengil avtomobillar sovg'a qilinmoqda.

Atrof-muhitdagi voqea-hodisalar, jumladan, kitob mazmuni va barcha bilimlar inson miyasi orqali qabul qilinadi. Miya 35 yoshgacha o'sadi. Inson tashqi muhit axborotining 70-80 foizini 5 yoshgacha olib bo'ladi, tafakkur va ong ham ayni shu paytda shakllanadi. Demak, 3-4 yoshga kelib inson miyasi fiziologik jihatdan o'qishga, harflarni jamlashga tayyor bo'ladi. Miyaning mana shu fiziologik xususiyati hisobga olingan holda, dunyoning aksariyat mamlakatlarida bolalar 5-6 yoshdan, ba'zilarida esa 7 yoshdan 1-sinfga qabul qilinadi.

"Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabi". Inson miyasining cheksiz imkoniyatlarini ishga solish uchun esa, avvalo, kitob o'qish kerak. Endi anglayotgandirsiz, yurtimizda kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar zamirida qanday maqsadlar yotganligini?!

xuroftodan, birov yetaklagan tomonga og'ib ketishdan saqlanishning yagona yo'lidir.

## INSHO YOZISHNI TIKLASH LOZIM

Xo'sh, bu borada qanday yo'l tutgan ma'qul, dersiz. Yana Amerikadan misol keltiram. AQShdagi boshlang'ich maktablarda o'quvchilar har haftada maktab kutubxonasiga borishi shart. Bolalar o'zi xohlagan, ba'zida o'qituvchilarining tavsiyasiga ko'ra, bittadan uchtagacha kitob olish huquqiga ega. Faqat kitoblarni o'qib, ikki haftadan so'ng topshirishi kerak. Adabiyotlarni qaytarish muddati yaqinlashgach, o'quvchilar ota-onalarining elektron pochta-siga bu haqda eslatma yuboriladi.

Darhaqiqat, kitob — buyuk ustoz! Zero, birgina kitob inson hayotini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Ya'ni baxt millionlab kitoblar ichida ruhingizga mos kitobni topa olishda. Shuning uchun bolalarning ayni ulg'ayish paytida mutolaaga jalb qiling. Bu uning shaxs sifatida shakllanishida, hayotda o'z yo'lini topib, kasb-kor tanlashida katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

## FAQATGINA DIPLOM UCHUN EMAS...

"O'qishdan to'xtagan odam fikrlashdan ham to'xtaydi", degan edi donishmandlardan biri. To'g'ri, hozirgi zamonamizda istalgan yangiligi axborotni internet orqali olish mumkin. Bir qarashda kitob o'qish uchun vaqt sarflashga hojat yo'qdek. Aslida, hech bir axborot vositasi, hatto kino yoki boshqa ko'ngilochar tomoshalar ham badiiy asar o'rni bosolmaydi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani asosida ishlangan film qanchalik muvaffaqiyatli, aktyorlar ijro mahorati kuchli bo'lmasin, baribir kitobga yetmaydi. Uning ta'sir kuchi, jozibasi boshqacha.

Shu ma'noda, bugun yaxshi diplom uchun emas, yaxshi bilim olish, kitob o'qish uchun kurashadigan vaqt keldi. Maktab, litsey, oliy o'quv yurti uchun emas, o'zing uchun, hayot uchun o'qish, bilim olish kerak. Zero, bilim olish baxtsizlikdan,

Kitobxonlikni, kitob o'qishni rivojlantirishning eng muhim tadbirlaridan biri, bu — insho yozish. Demak, barcha oliy o'quv yurtlarida kirish imtihonida insho yozish tiklansa, ayni muddao bo'lardi. Chunki abiturient kitobxon, savodxon bo'lsagina o'z fikrini qog'ozga ravon va xatosiz tushira oladi. Tan olmay iloj yo'q, insho yozish bekor qilingandan keyin, boshqa tomonlarini qo'yavering, o'z familiyasini xato bilan yozadigan qatlam ham paydo bo'lgani achinarlidir. Axir yaqin o'tmishimizda biz maktab bitiruv imtihonlarida, oliy va o'rta ta'lim o'quv yurtlariga kirishda qanday mavzuda insho yozganimiz bilan faxrlanib yurar edik-ku?!

Shu o'rinda Janubiy Afrika Respublikasidagi bir universitet kiraverishida bitilgan mana bu so'zlarni keltirajak.

"Har qanday millatni yo'q qilish uchun atom bombasi yoki uzoq radiusga ta'sir qiladigan raketalarga hojat yo'q. Faqat ta'lim sifati pasaytirilsa va imtihonlarda talabalar aldash uchun imkoniyat yaratilsa bas. Bunday vrachlar qo'lga tushgan bemorlar o'la boshlaydi. Bunday iqtisodchilar va hisobchilar qo'lidagi pullar izsiz yo'qoladi. Bunday diniy ulamolar tufayli insonlar ma'nan o'la boshlaydi. Bunday yuristlar va sudyalari qo'lida adolat yo'qlik sari yuz tutadi... Qonun chiqaruvchilar qo'lida boshqaruv yo'q bo'ladi. Ta'limning barbot bo'lishi — millatning kasodga uchrashidir".

AQShda ham maktab bitiruvchilari, albatta, bitiruv ijodiy inshosini yozishadi. Har bir shtatda insho yozib, sovrinli o'rinlarni olgan bitiruvchilarga mukofotlar beriladi, rag'batlantiriladi.

Masalan, 2017-yili Pensilvaniya shtatining Pittsburg shahridagi "Shady Side Academy" maktabini a'lo baholarga bitirgan vatandoshimiz Azizjon Yo'ldoshevning ijodiy inshosi

mamlakatda sovrinli o'rin olgani uchun "Martin Lyuter King" mukofotiga sazovor bo'ldi. Aynan shu mukofoti tufayli Azizjon Amerikaning 23 ta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirib, barchasiga grant asosida va yillik stipendiya bilan qabul qilindi.

Universitetlar Azizjonga yillik stipendiyani 10 mingdan 30 ming dollargacha taklif qilishdi. U Vashingtondagi "American University" universitetining biznes fakultetini tanladi. Bu universitet jamoasi Azizjoni suhbatdan o'tkazib, talabalar orasida "Lider" (sardor) unvonini berishdi. O'tgan yili Azizjon universitetni a'lo baholarga tamomlab, AQShning eng yirik kompaniyalaridan biriga ishga qabul qilindi. Mana, inshoning, zamonaviy bilimlarning kuchi!

Ta'lim-tarbiyaga bo'lgan mana shunday ijodiy yondashuv tufayli bugun AQSh dunyoning eng savodli odamlar mamlakatiga aylandi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, aholisining 99 foizi savodli bo'lib, kamida o'qish va yozishni biladi. 85 foizi o'rta ma'lumotga ega bo'lsa, 28 foizi oliy ma'lumotlidir.

## QASHSHOQLIKNING ASL SABABI...

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, umuman kitob o'qimaydigan insonlarning 43 foizi qashshoqlikda yashaydi. Savodli insonlar orasida esa qashshoqlikda yashaydiganlar 4 foizni tashkil etadi. O'rganishlar yana shuni tasdiqlayaptiki, kitob o'qishni xush ko'radigan bolalar maktabda ham a'lochi bo'ladi. Ular grammatikani ham, matematikani ham yaxshi o'zlashtiradi.

Eng yomoni, bilimsizlik jinoyatdan ham xavfli illat sanaladi. Italiyalik mashhur iqtisodchi-tarixchi Karlo Chippolo shunday yozadi: "Bilimsizlar jinoyatchilardan ko'ra xavlidir. Jinoyatchilarda maqsad bo'ladi, tintaklarda esa yo'q. Shuning uchun ularning harakatlarini oldindan bilish imkonsizdir. Ular sizga hech qanday sababsiz, muddaosiz, rejasiz zarar yetkazadi. Eng kutilmagan joyda, eng noqulay paytda paydo bo'ladi".

Xo'sh, bunday illatga qarshi qanday kurash olib borish mumkin? Aniq va sinalgan yo'llari bormi?

Albatta, bor. Buning sinalgan yo'li kitobxonlikdir. Shu bois yurtimizda, ta'bir joiz bo'lsa, aql "mash'ala"lari yo'qilmoqda.

Kuzatayotgan bo'lsangiz, O'zbekistonda keyingi yillarda ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ana shu qat'iyat, itilish o'z ifodasini topib boryapti. Bu uchinchi Renessans quyoshi uyg'unayotganidan dalolatdir.

Xotima o'rinda bir hadisi sharifi keltirishni joiz topdik. Unda shunday deyiladi: "Ilm o'rganinglar: ilm zulmatda quyosh, vahshatda hamroh, yolg'izlikda yo'ldosh, begona yurtda sirdosh, og'ir damda rahbar, dushmanga qarshi quroldir".



# UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI

MUTOLAA

*Ma'naviyat butun xalq taqdirini hal qila oladigan mezonlardan biri. Bu tushuncha zamirida ulkan ma'no bor. Ma'naviy yetuk millat katta kuchdir. Bunday kuchni aslo yengib bo'lmaydi. Ma'naviyat haqida ko'p gapirilmoqda. Darsliklar, kitoblari, amaliy qo'llanmalar, madaniy-ma'rifiy tadbir va ilmiy konferensiyalarning tashkil etilishi bir muncha ko'paydi.*

*Ma'rifat-u muruvvatdir buyuklikning nishonasi,  
Qadam qo'ying mana sizga dong'il yo'lning ostonasi.*

Abdulla ORIPOV

Bularning barchasi yaxshi, albatta, ammo bu tushuncha haqiqatan ham to'laqonli ochib berilyaptimi? Baland-parvoz so'zlar qulog'imizga bot-bot quyilaverib, bu tushuncha siyqasi chiqqan, yuzaki bir "xirgoyi"ga aylanib qolmadimikan? Bugungi yoshlar-chi, bu tushunchani qanchalik darajada anglab yetishyapti? Yoxud Behbudiy ta'biri bilan aytganda: "Yetti otasining otini bilmaydigan..." avlodni "ma'naviyatli" deyish qanchalik o'rinni? Men dunyo tamadduniga hissa qo'shmoqchi bo'layotgan avlod vakillari bu tushunchani chuqurroq va kengroq anglab yetishlari kerak deb o'ylayman.

XX asrda "ma'naviyat" tushunchasi mustaqillik sabab dolzarb mavzuga aylandi. Xalqimizning istiqoldan oldingi qora, kirlik kunlarida bu tushuncha garchi ozodlik, tenglik, barobarlik shiorlarini ko'tarib yursa-da, haqiqatda uning teskarisini ko'rsatardi. U dini, diyonatni, milliylikni rad etar edi. Insoniyat tarixi esa uning faqatgina musharak qadriyatlar asosida yashamog'i, taraqqiy topmog'i mumkinligini isbotlab berdi. Xalqimiz 130 yil mustamlaka sharoitida yashadi. Natijada tariximiz soxtalashtirildi, ya'ni millatning sha'ni, shara'fi, g'ururi bilan bog'liq barcha narsa ongli ravishda, bosqichma-bosqich yo'qotib borildi. Bu yo'qotishlarning barchasi xalq ma'naviyatining darz ketishiga sabab bo'ldi. Millat uchun eng katta fojia o'z tarixi va ma'naviyatini yo'qotish edi.

Tarixni sinchiklab o'rganmoq va undan xulosa chiqarmoq eng to'g'ri yo'ldir. "Ma'naviyat" tushunchasini to'laqonli anglashda diniy va dunyoviy bilimlarni egallash bugun jamiyatimizda kundek ravshan bo'lgan haqiqatdir. Buni hech kim inkor eta olmaydi. Ha, "Uchinchi Renessans" va dunyoning yana bir "Uyg'onish davri"ni, shubhasiz, yuksak ma'naviyatli avlodgina bunyod eta oladi.

Shu o'rinda men "Renessans" tushunchasiga alohida urg'u bermoqchiman. Lug'aviy jihatdan bu so'zning tub ma'nosi "qayta tug'ilish", "uyg'onish" demakdir. Demak, bu tushuncha keng qamrovli bo'lib, bir soha doirasida emas, balki barcha sohada: fiqh, din, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, tibbiyot, kashfiyotchilik, hunarmandchilik va albatta, sportda ham misli ko'r-

ilmagan izlanishlarni nazarda tutadi. Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida o'z o'rni va mavqeyini yuksak cho'qqilarga ko'targan Singapur, Janubiy Koreya, Indoneziya kabi davlatlar haqiqiy "Renessans" o'choqlaridir.

Ilm-u maorif har qanday tamaddunning asosi. Uni egallagan millat va millat vakillarining nomi hech qachon tarix sahifalaridan o'chmaydi. IX-XII asrlarda yuz bergan katta evrilish "Birinchi Renessans"ning paydo bo'lishiga o'z hissasini qo'shgan O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-ilmiy merosi ham moziyning oltin zarvaraqalariga muhrlandi. Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy va Islom olamining muhaddis ulamalaridan Imom al-Buxoriy, Muhammad at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturidiy kabi yurtimiz tuprog'ida tug'ilib, voyaga yetgan ulug' bobolarimizni mana necha asrki, dunyo ahli "Birinchi Renessans bunyodkorlari" deya e'tirof etadi. Birgina Xorazmiy va Ibn Sinoning matematika va tibbiyot sohasida yaratgan asarlarini Ovropa davlatlari o'zlari uchun dasturilamal deb biladilar.

Misol uchun italyan shoiri Dantening "Ilohiy komediyasi"ni ona tilimizga tarjima qilgan adibimiz Abdulla Oripov Sharq va G'arbda yaratilgan ko'pgina asarlarni o'rganib, g'oyat hayratomuz bir manzaraga duch keladi va shunday deydi: "Dante tasvir qilgan odamlar haqidagi tushuncha, faraz aynan Sharqdan, to'g'rirog'iy, vatandoshimiz al-Farg'oniy asarlaridan olingan ekan". Bobolarimiz bilan bog'liq bunday tarixiy misollar ro'yxatini biz uzoq sanashimiz mumkin.

IX asrdan to XII asrga qadar shunday buyuk siymolarni yetishtirgan Bag'doddagi "Bayt ul-hikmat" va Urganchdagi "Ma'mun akademiyasi"ning rasadxona va kutubxonalar ulug' ajdodlarimiz qo'nim topgan maskan bo'lgan. Ularning tor, ikki qavatlik hujralari ilm-fan olamining qanchadan-qancha kashfiyotlariga guvoh bo'lgan. Zamonamizda ham davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Bayt ul-hikmat" va "Ma'mun akademiyasi"dek ijod va ilm-u maorif maktablari bunyod etilyapti, deb o'ylayman.

Yaqinda ijodiy safar munosabati bilan Toshkentda joylashgan Al-Xorazmiy nomidagi matematika va aniq



fanlarga ixtisoslashtirilgan ijod maktabida bo'ldik. Maktabga kirishingiz bilan zamonaviylik va sharqona uslub uyg'unlashgan muhit sizni qarshi oladi, o'z-o'zidan yana o'quvchiga aylanib qolib, shunday ulug' maskanda bilim olish istagi paydo bo'ladi. O'ylaymizki, maktab o'z nomini oqlagan holda, Sharqning al-Abbos Javhariy va Al-Xorazmiydek olimlarining munosib izdoshlarini kamolga yetkazadi.

Adolat va haqqoniyat bilan dunyoga namuna-timsol bo'lgan xalqimiz tarixida yana bir siymo borki, uning qilichi va adl mash'ali ostida XIV-XV asrlarda Sharqda "Ikkinchi Renessans", "Uyg'onish davri" vujudga keldi. Ulug' sarkarda - Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari"da "Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim", deydi. Harb-u zarbdagi buyuk futohotlar, ilm-u fan va badiiy ijoddagi hayratomuz kashfiyotlar, qo'yingki, Mirzo Ulug'bekning zebi jahon rasadidan Kamoliddin Behzodning fusunkor suratlarigacha, buyuk Navoiyning ilohiy gazallaridan, jahonning toqi bilan bo'yashgan Oqsaroydan sehri "Shashmaqom"ning yangilangan taronalargacha bo'lgan va "Sharq Renessansi" nomi bilan tarixga kir-

gan hodisaning boniysi ham, homiysi ham Amir Temur bo'ldi. XV asrda Temuriylar sulolasi vakili Husayn Boyqaro davrida yashab, ijod qilgan so'z mulkining sarvari Alisher Navoiy atrofida yig'ilgan olim-u shoirlarning ilm-fanga qo'shgan hisssasi olam jahongiri Temur boshlab bergan tamaddun zanjirining uzviy davomi edi. Xalqimizning suyuqli yozuvchisi Oybek ijodida "Navoiy" obrazi va u yashagan davr serjilo chizgilar bilan yoritib berilgan. Navoiy yoqqan ilm chirog'i Kamoliddin Behzod va Xondamirdek buyuk iste'dod egalari dunyoga tanitdi.

Uning xalq ma'rifati va manfaati haqida aytgan so'zlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan deb o'ylayman: "Ilmni xalqqa beringiz, tatabbu va tafakkur bilan ilmni kengaytirmoqqa harakat qilingiz! Ilm ko'mig'liq xazina emas, jonli daraxtdir, o'smog'i, gullamog'i, meva bermog'i kerak!".

Tarixning o'zi katta ustoz, muallim. Uning millatlarga bergan sabog'i, hali yozilmagan qissalari ham ko'p. XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi Rossiya mustamlakachiligi zulmini boshdan kechirgan turkiy xalqlar uyg'onishining boshida turgan taraqqiyparvar jadidlarimizni eslab o'tishni joiz deb bildim. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Toshkentda

Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho'ipon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Bobo'xun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Turkiston ma'rifatparvarlari jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik, diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarining asl sabablari deya talqin etdilar. Ularning asosiy maqsadi ham ilm-u maorif bo'lganiga hech shubha yo'q.

Xulosa o'rinda bir narsani alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Bugun biz qurmoqchi bo'layotgan "Uchinchi Renessans" pillapoyasi jadidlarimiz tomonidan qo'yilgan. Bizning vazifamiz uni ilm va ma'naviyat kuchi ila bunyod etishdir. Yuqorida buyuk bobolarimiz, mutafakkir allomalimiz asarlari va ular yaratgan "Birinchi va Ikkinchi Renessans" davrlarini ham bejiz tilga olmadik, chunki dunyo ahli ular yashagan muhit hamda ular yozgan qo'lyozmalar asosida o'z tamoyillarini yaratyapti, barcha sohada yuksak cho'qqilarni zabt etyapti. Biz o'z tariximizdagi buyuk siymolarni tanidik va ular bilan yetarlicha faxrlandik ham. Endigi navbat bilim orqali o'z nomini tarixga muhrlash.

Mashhura  
ABDURAYIMOVA,  
O'ZJOKU 2-bosqich talabasi



*O'z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o'tmasin! Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!*

Shavkat MIRZIYOYEV


# MITTI, AMMO ZALVORLI HIKOYALAR

*adabiyotning beqiyos kuchini ko'rsatadi*

*O'*tayotgan umrimizning har bir kuni sinovli, ba'zan esa tashvishli, gohida mazmunli, yashashga, orzu va havas qilishga undagan holda kechadi. Ba'zan qo'limizga turli mavzu va mazmundagi badiiy kitob olib, o'zimizning ma'nan boyligimiz, dunyoqarashimizni kengaytirish, bu hayot sinovlari-yu tashvishlarini biroz unutish maqsadida undan ovunch olamiz. Asardagi ijobiy qahramonlardan o'zimizga keraklicha o'rnak olib, ezgu maqsadlar sari yuksak marralarga intilamiz. Salbiy obrazlardan esa ular kabi noto'g'ri va yengil yo'lni tanlamaslik, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaslik uchun kitobdan o'zimizga tarbiya olamiz. Zero, aytilgan-ku "Tarbiyani - tarbiyasizdan o'rgan", deb.

Kimdir o'qimoqchi bo'lgan asaridagi voqealik tezda tugab qolmasligi uchun 400 yoki 500 betli kitob tanlasa, boshqasi kam varaqli, biroq chuqur ma'no va mazmunga ega kitobni tanlaydi. Ba'zida ikki og'iz so'z ham insonni chuqur o'yga, mushohadaga undaydi. Sizga ilinmoqchi bo'lgan quyidagi hikoyalar ham bunga misol bo'la oladi. Qisqa, ammo purma'no bu asarlar jahon adabiyotida o'zining munosib o'rniga ega sanalib, hali-hanuz qator xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lmoqda.

Ernest Xeminguey o'z ijodkor do'stlari va muxlisleri bilan har qanday insonni ta'sirlantira oladigan, atigi olti so'zdan iborat hikoya yoza boshladi mumkinligi haqida bahs oylashadi. Unga g'alaba olib kelgan hikoya mana bu: "For sale: baby shoes, never used"... (Bolalar poyabzali



sotiladi, kiyilmagan). Bu hikoyaning mazmuni shundan iboratki, bir necha yillar davomida farzandtalab yurgan oila hayotida ijobiy yangilik bo'lganida baxtdan quvonib, faqirona hayot kechirsa-da, hali dunyoga kelmagan chaqaloq uchun bor puliga oyoq kiyim sotib oladi. Biroq chaqaloq uni kiyishga ulgurmaydi – tug'ilibovqat vafot etadi...

Bu kabi qisqa, biroq inson ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatadigan, kishini o'ylantiradigan hikoyalar juda ko'p. Quyida ulardan yana bir nechtasini misol tariqasida keltiramiz.

An'anaviy hikoyachilikning tugun, kulminatsiya va yechim kabi tarkiblardan iborat bo'lgan eng qisqa hikoyalar tanlovida O' Henri g'olib bo'lgan: "Chekib olgan haydovchi qancha yonilg'i qolganini ko'rish uchun benzobak tomon egildi. Marhumning yoshi yigirma uchda edi".



Frederik Braun eng qisqa, biroq qo'rqinchilik falsafiy hikoyani yozgan: "Yerdagi oxirgi odam xonada o'tirardi. Birdaniga eshik taqillab qoldi"...

Robert Tompkins, "Haqiqatni qidirib". "Nihoyat, bu xilvat, ovloq qishloqda uning qidiruvlari yakunlandi. Chirib, to'kilay deb qolgan xarob kulbada millatlar turgan olov yonida Haqiqat o'tirardi. U umrida hech qachon bundayin qari va badbaxshara ayolni ko'rmagan edi.

– Siz Haqiqatmisiz?  
Qartaygan, burushiq alvasti tantanavor bosh silkidi.  
– Aytingchi, men insoniyatga siz haqingizda bildirishim kerakmi? Ularga qanday xabarni yetkazay?


Kampir olovga tupurdida, javob berdi:  
– Ularga meni yosh va sohibjamol ekan deb ayt!".

Alan Y.Mayer, "Omadsizlik" (hikoya). "Tanamdagi shiddatli og'riqdan uyg'onib ketdim. Ko'zimni ochishim bilan karavotim oldida turgan hamshirani ko'rdim.

– Mister Fudjima, – dedi u, – omadingiz bor ekan, siz ikki kun avval Xirosimadagi bombardimondan omon qoldingiz. Hozir siz gospihtaldasiz, ortiq xavf ostida emassiz.

Madorsizlikdan bazo'r so'radim:

– Qayerdaman?  
– Nagasakida, – javob berdi u".



Afrikanlik bolakay yozgan quyidagi hikoya "2005-yilning eng yaxshi hikoyasi" xalqaro tanlovida g'olib bo'lgan:

"Tug'ilganimda men qora edim. Qora bo'lib ulg'aydim. Men quyoshda uzoq tursam yana qorayaman. Hattoki, o'lganimda ham qoraligimcha qolaman.

Siz, oqlar esa: tug'ilganingizda – qizg'ish bo'lasiz. Ulg'ayganingizda – oqarasiz. Oftobda toblanganingizda – qizarasiz. Sovqotganingizda – ko'karasiz. Qo'rqanigizda – sarg'ayasiz. O'zingizni yomon his qilganingizda – yashil tusga kirasiz. O'lganingizda esa bo'zarasiz. Va siz meni rangli (qora tanli) deysiz".

Bu hikoyachalar inson kayfiyatiga ta'sir ko'rsatish qudratiga ega bitiklardan bir namuna. Qadri va kelajagi porloq yoshlar, bo'sh vaqtlingizni badiiy va ilmiy kitoblar bilan do'st tutinishga sarflang. Zero, kitob ma'naviy boylik hisoblanadi. Faqat kitobgina dunyoqarashingizni o'zgartira oladigan, ilm bilan taminlaydigan kuchga ega.

Zavqibek MAHMUDOV,  
Yuqorichirchiq tumanidagi  
34-maktab o'qituvchisi,  
O'zRFA Tarix instituti  
stajyor-tadqiqotchisi